

**SAMARQAND DAVLAT
VETERINARIYA
MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA
BIOTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**



IQTISODIYOT FAKULTETI

**QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI,
BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITNI
RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH
MASALALARI**

**2023 YIL
6-7 IYUN**

Respublika ilmiy-amaliy anjumani
materiallari



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti, buxgalteriya hisobi va auditni rivojlantirishda
raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari” mavzusida Respublika
ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti, 6-7 iyun, 2023 yil

**Материалы Республиканская научно-практическая конференция на тему
“Вопросы использования цифровых технологий в развитии экономики
сельского хозяйства, бухгалтерского учета и аудита”.**

Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, живо
тноводства и биотехнологий, 6-7 июнь 2023 год

**Materials Republican scientific and practical conference on the topic "Issues of
the use of digital technologies in the development of the agricultural economy,
accounting and auditing"**

Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and
Biotechnology, 6-7 June 2023

Samarkand -2023



<i>Бердимурат Н., Болатбекқызы А. СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА ОБЪЕКТОВ НЕДВИЖИМОСТИ</i>	192
<i>Xodjimuxamedova Sh., Arashova S. MAMLAKATIMIZDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH TARTIBI</i>	200
<i>Fayziyev O. SUG‘URTA BOZORINI RAQAMLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI</i>	204
<i>Ibragimov G.A. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISH MASALALARI.....</i>	209
<i>Мардонов М., Мирзаев Б., Нарзуллаев Н. КОРХОНАЛАРДА ИННОВАЦИОН МАҲСУЛОТ, ИШ ВА ХИЗМАТЛАР ҲАЖМИНИ ҲИСОБЛАШ MASALALARI.....</i>	217
<i>Расулов З., Қўлдошев А. БЮДЖЕТНИ БОШҚАРИШНИНГ НАЗОРАТ ВА АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....</i>	222
<i>Нарзиева Г. АКТУАЛЬНОСТЬ И ПОРЯДОК ПРИМЕНЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....</i>	229
<i>Мардонов М., Мирзаев Б., Нарзуллаев Н. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА МАРЖИНАЛ ДАРОМАД ҲИСОБИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....</i>	233
<i>Рахимова У. ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА И АУДИТА НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ.....</i>	239
<i>Maxmudov A., M.Mardonov M. SANOAT KORXONALARIDA XARAJATLAR VA MAHSULOT TANNARXI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	242
<i>Азимова Ҳ., Амиров А. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ</i>	246
<i>Абидова М. ИНВЕСТИЦИЯЛАР ВА УЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ</i>	259
<i>Ахмедов М. МОЛИЯВИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРГА МУВОФИҚ ТАСНИФИ</i>	263
<i>Бердимурат Н., Ермухамет Т. ФИНАНСОВЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ В ПЕРИОД ПАНДЕМИИ COVID-19</i>	266
<i>Джалилов Р. РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИНИНГ НАЗАРИЙ MASALALARI.....</i>	274
<i>Davletov I. INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARIGA NISBATAN HUQUQLARDAN FOYDALANISH Tahlilining XUSUSIYATLARI.....</i>	282
<i>Ишонқулов Н. КЎЧМАС МУЛК ҚИЙМАТИНИ БАҲОЛАШДА АХБОРОТЛАР ТИЗИМИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА БАҲОЛАШ ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ҲОЛАТИ</i>	289
<i>Йўлдошев О. КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ЛОЙИҲАЛАРНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ ЙУЛЛАРИ</i>	305
<i>Джалилов Р. MAMLAKATIMIZDA СОЛИҚ СИЁСАТИ ВА УНИНГ ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ МЕХАНИЗМИГА ТАЪСИРИ</i>	312
<i>Egamberdiyeva S., Xudoykulov S. IQTISODIY ISLOHOTLARNI CHUQURLASHUVI SHAROITIDA INVESTITSİYALAR HISOBİ VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	317
<i>Мукимов З., Мустафоев А. РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....</i>	320



kelishuvlar va hamkorliklar natijasida hamkorlar bilan bir birimizni tushinish maqsadida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. www.lex.uz.
2. SH.M.Mirziyoyevning “MHXSga o‘tishning qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 24-fevralda PQ-4611-sonli Qarori.
3. Tashnazarov S. Xalqaro hisob asoslari. Ma’ruza matni SamISI, 2008. -210b.
4. M.Bonhan and others. Generally accepted Accounting practice under IFRS. Ernst and young LLP, United States, 2010. -part 1.p.
5. A.M.Babadjanov, Sh.I.Xodjimuxamedova, F.X.Shafkarov “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.” 2021-y. 360-bet.

SUG`URTA BOZORINI RAQAMLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Fayziyev Oybek Raximovich
Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti, i.f.f.d (PhD)
fayziev.oybek@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston sug‘urta bozorini raqamlashtirish asosida boshqarish va sug‘urta kompaniyalari tomonidan taklif qilinayotgan sug‘urta xizmatlarini raqamli sug‘urta xizmatlariga o‘tkazish masalalari ko‘rib o‘tilgan. Bunda dunyoni rivojlangan sug‘urta bozori va uning ishtirokchilari bo‘lgan sug‘urta kompaniyalarini tajribalaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta, raqamlashtirish, xorij tajribasi, sayt, qaror, raqamli texnologiyalar, sug‘urta polisi, mobil dastur.

KIRISH

Mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu borada mamlakatimiz iqtisodiyotiga innovatsiyaning muhim shakli sifatida raqamli texnologiyalarning tezkorlik bilan joriy etilishi dolzarb ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi”¹, deb alohida ta’kidlanganligi bejiz emas.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4412-son qarorida sug‘urta faoliyatini tashkil etish va tartibga solish sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, sug‘urta xizmatlarining elektron turlarini faol

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi//Xalq so‘zi, 2020 yil 26 yanvar.



joriy etish va rivojlantirish respublikamiz sug`urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirishning asosiy yo`nalishlaridan biri etib belgilanganligi e`tiborga molik.¹

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug`urta xizmatlarining elektron turlari internet-sug`urta yoki zamonaviy tilda aytganda raqamli sug`urta texnologiyalarining shakllaridan biri hisoblanadi. O`zbekiston sug`urta bozorida sug`urta xizmatlarining elektron turlarini qo`llanilish holatini tahlil etishdan oldin ushbu yo`nalishda xorijiy davlatlarda amalga oshirilayotgan ishlarni o`rganish foydadan xoli emas.

IT sohasidagi mutaxassis A.Ahmedovning fikriga ko`ra, birinchi elektron sug`urta turlari AQShda joriy etilgan bo`lib, bu 1994 yillarga to`g`ri keladi. Qizig`i shundaki, internetdagi dastlabki sug`urta vakolatxonalarini sug`urta kompaniyalari emas, balki sug`urta brokerlari tashkil etishgan. AQShning “EindMyInsurance” brokerlik kompaniyasi 1994 yilda internet tarmog`ida o`zining sayтини yaratadi. Keyinchalik “Progressive”, “Elektric Insurance-Company” va “Allstate” sug`urta kompaniyalari ham tarmoqda o`z saytlarini yaratib, mijozlarga elektron sug`urta xizmatlarini ko`rsatgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Sug`urta bozori hududiy joylashuviga qarab xalqaro, mintaqaviy va milliy sug`urta bozorlariga bo`linadi. **Milliy sug`urta bozori** biron-bir mamlakat hududidagi sug`urta muassasalarini va ularni faoliyatini o`z tarkibiga oladi. Jahondagi eng yirik milliy sug`urta bozori Amerika Qo`shma shtatlaridir. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda yig`iladigan sug`urta tushumlarining 43 foizdan ortig`i AQSh hissasiga to`g`ri keladi. Bu yerda hayotni sug`urta qiluvchi 2600 dan ortiq va boshqa umumiy turdagi sug`urta xizmatlarini ko`rsatuvchi 3800 ta kompaniya faoliyat ko`rsatmoqda. Ulardan ba`zi birlari dunyo sug`urta bozorida ham oldingi o`rinlardadir. Masalan, “Prudenshial of Amerika” kompaniyasi mamlakat ichki bozorida birinchi va 1992-yil boshida mavjud aktivlari, to`plagan sug`urta mukofotlari bo`yicha uchinchi o`rinni egalladi.²

Jahon sug`urta xizmatlari bozorida raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirishga qaratilgan “Insurtech” deb nomlanuvchi startap loyihalarini moliyalashtirishga katta e`tibor qaratilmoqda. “Willis Towers Watson” sug`urta brokerlik kompaniyasi o`tkazgan tadqiqot natijalariga ko`ra, AQShda 2013 yildan 2018 yilning birinchi yarmiga qadar hayotni va sog`liqni sug`urtalash bo`yicha startap loyihalariga 5,1 mlrd. AQSh dollari, baxtsiz hodisalardan sug`urtalash va mulklarni sug`urtalash yuzasidan startap loyihalariga 4,2 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi pul mablag`lari sarflangan. Ushbu sug`urta turlarini raqamlashtirish bo`yicha jahon sug`urta bozorida amalga oshirilgan investitsiyalarning qariyb 58,0 foizi AQSh, 7,0 foizi Buyuk Britaniya, 5,0 foizi Germaniya va Xitoy, 4,0 foizi Hindiston, 3,0 foizi Fransiyaga va qolgan 18,0 foizi esa boshqa davlatlar hissasiga to`g`ri kelgan.

¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi “O`zbekiston Respublikasining sug`urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta`minlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-4412- son qarori.

² M Sharapova. “Iqtisodiy islohotlar sharoitida O`zbekiston Respublikasida sug`urta bozorini rivojlantirish yo`llari”. “Science and Education” Scientific Journal / ISSN 2181-0842. 22.03.2022. 1179-b.



Keltirilgan raqamlar, yuqorida qayd etilganidek, 2018 yilning birinchi yarmiga oid bo‘lib, bizning nazarimizda, ushbu raqamlar 2020 yilning oxiriga kelib keskin oshgan bo‘lishi mumkin. Buni shu bilan asoslash mumkinki, bugungi kunda jahon sug‘urta bozorida raqobat keskin kuchaygan bo‘lib, mijozlarning talablariga mos keladigan yangi sug‘urta xizmat turlarini taklif etish, aynan, Insurtech sug‘urta texnologiyalari orqali taqdim etiladi. Bunga hech qanday shak-shubha bo‘lishi mumkin emas.

Shuni alohida qayd etish kerakki, mamlakatimizda ham raqamli texnologiyalarning bir ko‘rinishi sifatida elektron sug‘urta turlarini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Masalan, “Kafolat” sug‘urta kompaniyasining veb-saytida quyidagi ma‘lumotlar mavjud: “Sug‘urta polisini uyingizdan chiqmagan holda daqiqada rasmiylashtirishni xohlaysizmi? www.kafolat.uz orqali arizalarni rasmiylashtiring”, “Sug‘urta xizmatlari mobil dasturi orqali”. Ushbu jummalarni chuqurroq tahlil etadigan bo‘lsak, unda sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdagi innovatsion yondashuvni, aniqroq qilib aytganda, sug‘urtaning raqamlashtirilgan qiyofasini kashf etish mumkin.¹

2019 yilda “O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasi tomonidan onlayn sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishga ixtisoslashgan “insurance.uz” loyihasi amaliyotga tatbiq etildi. Sug‘urta mahsuloti iste‘molchilari o‘zlarini qiziqtirgan sug‘urta mahsulotlarini onlayn tarzda internetdagi ushbu saytdan xarid qilishlari mumkin bo‘ladi. Hozirgi kunda ushbu kompaniya, nafaqat, onlayn sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatmoqda, balki sug‘urta hodisalari sodir bo‘lishi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashda ham onlayn tizimidan samarali foydalanmoqda. Shu o‘rinda, sug‘urta xizmatlarini mijozlarga onlayn taklif etish boshqa sug‘urta kompaniyalarida ham yaxshi yo‘lga qo‘yilganligini qayd etib o‘tish zarur.²

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasidan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalari o‘z biznes jarayonlarini raqamli texnologiyalarning eng sodda shakllarini qo‘llash asosida tashkil etishga harakat qilmoqda. Aksariyat sug‘urta kompaniyalari ayrim sug‘urta xizmatlarini rasmiy veb-saytlariga joylashtirilgan va Android platformasida ishlaydigan mobil ilovalari orqali onlayn tarzda sotishni yo‘lgan qo‘ygan. Masalan, respublika sug‘urta bozorining xususiy sektorida faoliyat ko‘rsatayotgan “Gross insurance” sug‘urta kompaniyasi o‘zining www.gross.uz sayti orqali mijozlarga transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash, ko‘chmas mulk sug‘urtasi, avtosug‘urta (kasko), tibbiy sug‘urta va sayohat sug‘urtasi kabi sug‘urta xizmatlarini onlayn sotish tizimini joriy etgan. Tizimning mijoz uchun qulaylik tomoni shundaki, birinchidan u sug‘urta polisini o‘ziga qulay shartlarda va sanoqli daqiqalarda rasmiylashtiradi, ikkinchidan sug‘urta kompaniyasiga xizmat haqi

¹ “Kafolat” sug‘urta kompaniyasi saytining bosh sahifasi// www.kafolat.uz.

² “O‘zbekinvest” onlayn sug‘urta sohasida insurance.uz ni taklif etadi. (2019). // www.uzbekinvest.uz.



sifatida to‘lanadigan sug‘urta mukofotini amaldagi to‘lov tizimlari, masalan, Payme tizimi orqali uyidan yoki ish xonasidan turib amalga oshirishi mumkin.¹

Mamlakatimizda barcha sohalar qatori sug‘urta bozorini raqamlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ–5265-son, 23.10.2021 y.) qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, 2022 yil 1 iyuldan sug‘urtaning barcha turlarini (klasslarini) elektron shaklda amalga oshirishga ruxsat berilishi;

2023 yil 1 yanvardan majburiy sug‘urtaning barcha turlari bo‘yicha sug‘urta polislarini qog‘oz blankalarda rasmiylashtirish amaliyoti bekor qilinishi;

2022 yil 1 yanvardan 2025 yil 1 yanvargacha hayot sug‘urtasi sohasidagi sug‘urta tashkilotlarining mazkur faoliyati qismi uchun hisoblanadigan foyda solig‘i bo‘yicha belgilangan soliq stavkasi 50 foizga kamaytirilishi;

2022 yil 1 yanvardan 2024 yil 1 yanvargacha ish beruvchi tomonidan o‘z xodimlari uchun baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish va tibbiy sug‘urta turlari bo‘yicha tuzilgan sug‘urta shartnomalari asosida O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi bo‘lgan yuridik shaxslarga yo‘naltiriladigan mablag‘lar jismoniy shaxslarning jami daromadi sifatida qaralmasligi;

2022 yil 1 iyungacha transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha yagona axborot tizimi negizida barcha sug‘urta polislarini ro‘yxatga oluvchi va ularning aylanmasini nazorat qiluvchi yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilishi belgilab berildi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, sug‘urta shartnomalarini Yagona axborot tizimi orqali rasmiylashtirish sug‘urta tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi.

2022 yil 1 iyuldan inflyatsiyaga bog‘langan davlat qimmatli qog‘ozlari chiqarildi.²

Bundan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda ham sug‘urta bozorini yanada rivojlantirish hamda mazkur sohani raqamli texnologiyalar asosida qayta qurollantish, provardida esa, aholining sug‘urta va sug‘urta bozori haqidagi bilim va tasavvurlarini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar olib borilayotganligidan hamda “ ... zamonaviy sug‘urta bozori rivojlanishining muhim omili sohani raqamlashtirish ekanligi, u sug‘urta kompaniyasining biznesi, faoliyati tavsifini hamda sug‘urta xizmatlarini taqdim etish, taqsimlash va foydalanish ko‘rsatkichlarini yuqori bosqichga olib chiqish imkoniyatlarini oshirishligi”³ bo‘yicha samarali amaliy xarakatlar olib borilayotganligidan dalolat beradi.

XULOSA

O‘zbekistonda potensial sug‘urta qildiruvchilarga onlayn rejimda sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish rivojlangan davlatlarning tegishli ko‘rsatkichlaridan ancha ortda qolmoqda. Masalan, bundan besh yil oldin Yevropada 99,3 mlrd. evro

¹ “Gross Insurance” sug‘urta tashkiloti veb-saytining bosh sahifasi (2020). www.gross.uz.

² “Sug‘urtaning barcha turlari elektron amalga oshiriladi”. YANGI O‘ZBEKISTON. 25.10.2021

³ F.Ubaydullaev, Z.Umrzoqov. “Sug‘urta bozorining bugungi holati va istiqbollari”. https://uza.uz/uz/posts/sugurta-bozorining-bugungi-holati-va-istiqbollari_420317



miqdoridagi sug`urta mukofotlari yoki umumiy sug`urta mukofotlarining 8,2 foizi onlayn sug`urta polislarini sotish orqali kelib tushgan. 2019 yil yakunlari bo'yicha Rossiya Federatsiyasida global Internet tarmog'i orqali sotilgan sug`urta polisleri bo'yicha 67,8 mlrd.rubl miqdorida sug`urta mukofotlari kelib tushgan. Bu umumiy sug`urta mukofotlarining 4,6 foizini tashkil etgan.

Sug`urta faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida samarali tashkil etish, sug`urta kompaniyalari va sug`urta qildiruvchilarga tegishli ma'lumotlarning ishonchli saqlanishi va muhofaza etilishini ta'minlash choralari ko'rish, sug`urta xizmatlarini global internet tarmog'i orqali xarid qilish bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarga imkoniyat va shartsharoitlar yaratish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2020 yil 26 yanvar.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi “O'zbekiston Respublikasining sug`urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4412- son qarori.

3. “Kafolat” sug`urta kompaniyasi sayting bosh sahifasi// www.kafolat.uz.

4. “O'zbekinvest” onlayn sug`urta sohasida insurance.uz ni taklif etadi. (2019). //www.uzbekinvest.uz.

5. “Gross Insurance” sug`urta tashkiloti veb-sayting bosh sahifasi (2020). www.gross.uz.

6. “Sug`urtaning barcha turlari elektron amalga oshiriladi”. YANGI O'ZBEKISTON. 25.10.2021

7. M Sharapova. “Iqtisodiy islohotlar sharoitida O'zbekiston Respublikasida sug`urta bozorini rivojlantirish yo'llari”.

8. Shennaev X.M. Sug`urta sohasida raqamli texnologiyalarni qo'llashning ba'zi masalalari. The Intrnational Online Conference Proccedings on Digital Economy: Impacts, Challenges and Prospects. 23rd of April 2020. Tashkent: Management Development Institute of Singapore in Tashkent. 23.04.2020

9. F. Ubaydullaev, Z. Umrzoqov. “Sug`urta bozorining bugungi holati va istiqbollari”. https://uza.uz/uz/posts/sugurta-bozorining-bugungi-holati-va-istiqbollari_420317